ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889,
2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-6

SANOAT KORXONALARIDA INNOVATSION FAOLIYAT SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING IQTISODIY AHAMIYATI

Nuriddin Murodov
Navoiy konchilik va texnologiyalar universiteti magistranti
Ilmiy rahbar: i.f.d. professor
Ashurova N.B

Annotatsiya. Ushbu maqolada innovatsiyalar samaradorligini baholashning umumiy iqtisodiy tamoyili bo‘lib, undan olingan samara (natija) va harajatlarni solishtirish hisoblanadi. Harajatlar bilan natijalarni solishtirishga asoslangan innovatsiyalar samaradorligini hisoblash usuli innovatsiyalarning maqsadga muvofiqligi to‘g‘risida qarorlarni qabul qilishni nazarda tutadi.
Kalit so‘zlar: integral samara, innovatsiyalar rentabelligi, harajatlarni qoplash, ishlab chiqarish, innovatsion faoliyat, korxonalar, moliyaviy barqarorlik.

ЭКОНОМИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ ИННОВАЦИОННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ НА ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЯХ

Нуриддин Муродов
Магистрант Навоийского горно-технологического университета
Научный руководитель: к.ф.-м.н. Профессор Ашурова Н.Б.

Annotatsiya. В данной статье общим экономическим принципом оценки эффективности инновации является сравнение эффекта (результата) и затрат, полученных от него. Метод расчета эффективности инноваций, основанный на сравнении затрат и результатов, предполагает принятие решения о целесообразности инноваций.
Ключевые слова: комплексная эффективность, инновационная рентабельность, окупаемость затрат, производство, инновационная деятельность, предприятия, финансовая устойчивость.

ECONOMIC SIGNIFICANCE OF INCREASING THE EFFICIENCY OF INNOVATION IN INDUSTRIAL ENTERPRISES

Nuriddin Murodov
Master's student of Navoi University of Mining and Technology
Scientific supervisor: Ph.D. Professor Ashurova N.B

Abstract. In this article, the general economic principle of evaluating the effectiveness of innovation is the comparison of the effect (result) and costs obtained from it. The method of calculating the effectiveness of innovations, based on the comparison of costs and results, involves making decisions about the appropriateness of innovations.
Key words: integrated efficiency, innovation profitability, cost recovery, production, innovative activity, enterprises, financial stability.

Hozirgi vaqtda mamlakatimizda iqdisodiy rivojlanishning an’anaviy resurslarga asoslangan modelining yagona muqobil varianti bo‘lib, insonlarning intellektual salohiyatidan samarali foydalanishga yo‘naltirilgan innovatsion jarayonlar samaradorligini oshirish strategiyasi hisoblanadi. Bunda mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining joriy va istiqboldagi chora-tadbirlarini belgilashda fan sig‘imi yuqori bo‘lgan tarmoqdarni rivojlantirish, jahondagi globallashuv jarayonlar ta’sirini har tomonlama hisobga olish, iqtisodiy rivojlanish dasturlarini ushbu jarayonlar ta’siri nuqtai-nazaridan shakllantirish va ularni izchil amalga oshirishni taqozo etmoqda.

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889,
2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

VOLUME-5, ISSUE-6

Hozirgi vaqtda jahonning yetakchi davlatlari taraqqiyoti uchun sanoat rivojlanishidan keyingi bosqich xos bo‘lib, bu bosqichda iqtisodiy o‘sish omillarining roli va o‘rni o‘zgarmoqda. An’anaviy hisoblangan uch omilga, mehnat, yer va kapitalga fan-texnika taraqqiyoti omili ham qo‘shildi. Iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishi muhim resurslari hisoblangan axborotlar va bilimlar alohida ahamiyat kasb etib, bunda inson salohiyati hal qiluvchi rolga ega bo‘ldi.

Jahonda globallashuv jarayonining chuqurlashuvi va ilmni ko‘p talab qiluvchi texnologiyalarga asoslangan ishlab chiqarishning ustuvor rivojlanishi har qanday mamlakatning iqtisodiy o‘sishi va turmush sifati oshishining zaruriy sharti innovatsion faollik bilan belgilanadi. Innovatsion faollik, o‘z navbatida, davlatning iqtisodiy va ilmiy-texnik imkoniyatlari, uning innovatsiyaga oid siyosati va salohiyati, shuningdek, jamiyatning ma’naviy holatiga bog‘liq.

Innovatsiya faoliyati umumiy boshqarishning mustaqil yo‘nalishi sifatida XX asrning 10-20 yillarida ajralib chiqdi. Bu davr tovarlar ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatishning texnologik va texnik bazasi vujudga kelishi bilan tavsiflanadi. Dunyoda global umumjahon bozori vujudga keldi. Ishlab chiqarilgan mahsulot tarkibida yangi ilmiy tadqiqotlar natijasida ishlab chiqarilgan mahsulotlarning ulushi oshib bordi. Texnik jihozlar ko‘pgina modellarining (radio-telejihozlar, hisoblash mashinalari, avtomobillar va x.k) hayot davri qisqardi.

Iqtisodiyotda innovatsion faoliyat fan-texnika taraqqiyot yo‘nalishlari, ijodiy va amaliy ishlanmalar hamda tadqiqot natijalarini bevosita amaliyotga joriy qilishga yo‘naltirilgan jarayon sifatida namoyon bo‘ladi. Modomiki, «innovatsiya» kategoriyasining mohiyati ijtimoiy-iqtisodiy, tashkiliy-boshqaruv va texnologik jihatdan ancha keng tushunchadir. Innovatsion faoliyat va yo‘nalishlar sohasi keng ko‘lamli bo‘lib, nafaqat ilmiy-texnikaviy, texnologik yangiliklar va ishlanmalardan amaliyotda foydalanishni o‘z ichiga olmasdan, balki ishlab chiqarilgan tovar- mahsulot, mehnat jarayoni, marketing, ishlab chiqarishni tashkil etish hamda boshqaruv jarayonidagi o‘zgarishlarni ham qamrab oladi.

Ilmiy adabiyotlarda “innovatsiya” terminiga ko‘plab turlicha ta’riflar keltirilgan va keng yoritilgan hamda ushbu hodisa bilan bog‘liq jarayonlarning ko‘p xususiyatli turkumlanishi taklif etilgan bo‘lsa-da, lekin ushbu sohaning umumiy atamashunosligi va tasniflanishida umumiy yondashuv mavjud emas.

Mavjud adabiyotlarda “innovatsiya” kategoriyasining mohiyati ilmiy nazariy jihatdan atroflicha talqin qilingan bo‘lib, bu jarayon bilan bog‘liq turli xil tavsifdagi jarayonlar izohi keltirilgan. Ular quyidagilardan iborat (1-jadval).

“Innovatsiya” kategoriyasini aniqlash terminlari tavsifi Mualliflar	**“Innovatsiya” kategoriyasining aniqlanishi**
I.Shumpeter	**Innovatsiya - tadbirkorlik rudi bilan motivatsiyalashgan ishlab chiqarish omillarining o‘zgarishi (yangi kombinatsiyalar). Maqsadi - yangi ko‘rinishdagi tovarlarni joriy etish va foydalanish, ishlab chiqarishning yangi usul va uslublari, xom ashyoning yangi manbalari, yangi bozorlarni o‘zlashtirish, ishlab chiqarishni tashkil etishning yangi shakllari.**

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889,
2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-6

B.Santo	**Innovatsiya - ijtimoiy-iqtisodiy jarayon. Bunda goyalar va ixtirolardan amaliy foydalanish orqali o‘z xususiyatlari bo‘yicha eng yaxshi mahsulotlar, texnologiyalar yaratishga olib keladi va agarda innovatsiya iqtisodiy samara, foydaga yo‘naltirilgan bo‘lsa, uning bozorda paydo bo‘lishi qo‘shimcha daromad olib kelishi mumkin.**
X.Barnet	**Innovatsiyaga «har qanday goya, faoliyat yoki moddiy natija» tegishli, u mavjud shakldan o‘zining sifat ko‘rsatkichi bo‘yicha farqida yangi hisoblanadi.**
A.I.Prigojiy	**Yangiliklar boshqa ob’ektlarda tug‘ilish, o‘zlashtirish, diffuziya bosqichlariga texnologiyalar, texnika, boshqaruvning rivojlanishiga olib keladi.**
B.Tviss	**Innovatsiya - jarayon bo‘lib, ixtirolar va yangi g‘oyalar iqtisodiy mazmunga ega bo‘ladi.**
Fraskati Radbariyati	**Innovatsiya - bu amaliy faoliyat yoxud ijtimoiy xizmatlarga yangicha yondashuv asosida foydalaniladigan yangi va takomillashgan texnologik jarayon hamda yangi va takomillashgan ko‘rinishda bozorda realizatsiya qilinadigan innovatsion faoliyatning yakuniy natijasidir.**

Iqtisodiyotning transformatsiyalashishi sharoitida innovatsiya o‘zgarish jarayoni va omilining muayyan funksiyasi bo‘lib hisoblanadi. Y.Shumpeter yondashuviga ko‘ra, innovatsiya takomillashtirish jarayoni emas, balki ishlab chiqarish funksiyasining sezilarli darajada almashtirilishi hisoblanib, mehnat va ishlab chiqarish vositalarining o‘zaro yangicha birikishidir.

Aytish lozimki, Y.Shumpeterni avvalambor, innovatsiyalarni joriy etish natijasida uning xo‘jalik faoliyatiga ta’siri qiziqtirgan va bu holat mavjud tayyor mahsulotga yangicha funksiyani kiritish deb hisoblangan. Pirovardida foyda o‘rtacha ko‘rsatkichdan nisbatan yuqori darajani tashkil etadi deyilgan. Y.Shumpeterning fikricha, innovatsiyalar qo‘llanilishi, eng avvalo, mavjud ishlab chiqarish omillarining oshishini emas, balki mavjud omillardan samarali foydalanishning yangi shart-sharoitlariga moslashtirilishini nazarda tutadi.

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889,
2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-6

Yuqorida keltirilgan fikrlarni jamlab aytish mumkinki, innovatsion faoliyat - innovatsion g‘oya va ishlanmalarni tashkil etish, ishlab chiqarish sohasida ularning qo‘llanilishi va amalga oshirilishini ta’minlovchi faoliyat.

Hozirgi vaqtda yuqori texnologiyalarga quyidagi iqtisodiy faoliyat ko‘rinishlari tegishli: elektron va radio elektron sanoat, ofis jihozlari ishlab chiqarish va hisoblash texnikasi, hisoblash va nazorat vositalari, farmatsevtika mahsulotlari va tibbiyot buyumlari, uchish apparatlari.

Bilimlarga asoslangan yangi iqtisodiyot shakllanishiga yuqori darajada ta’sir ko‘rsatuvchi va xizmatlarni ishlab chiqaruvchi fan sig‘imi yuqori iqtisodiy faoliyat ko‘rinishlariga quyidagilar kiradi: ta’lim, sog‘liqni saqlash, ilmiy tadqiqotlar va ishlanmalar.

References:

1. “Ўзбекистон – 2030” Стратегияси тўғрисида. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони. – Халқ сўзи, 2023 йил 12 сентябрь.

2. Шумпетер Й. Теория экономического развития. Капитализм, социализм и демократия [Текст] / Й.Шумпетер: пер. с англ.; предисл. В.С. Автономова. - М.: ЭКСМО, 2007. - 864 с.

3. Qutbiddinovich, S. I., & Abdulazizovich, X. U. B. (2023). GAAP ASOSIGA QO’YILGAN MOLIYAVIY HISOB KONTSEPTSIYALARI. *Interpretation and researches*, *1*(3), 42-50.

4. O'g'li, J. E. S., & Abdulazizovich, X. U. B. (2019). Profits of housekeeping and its development. *Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR)*, *8*(4), 419-423.

5. Xolmirzaev, U. B. A., & Madaliev, M. R. (2023). MOLIVIY HISOBOTLARNING QAYTA KO ‘RIB CHIQILISHIDA XALQARO TALABLARGA RIOYA ETILISHI ZARURLIGI. *Educational research in universal sciences*, *2*(3), 424-432.

6. Khakimov, B. J., AIimov, B. B., Kholmirzayev, U. A., & Polechov, A. X. (2013). theory of Economic Analysis. *Tashkent" economics-finance"—2013*.

7. Xolmirzayev, U. A., & Xakimova, G. A. (2023). XO’JALIK YURITUVCHI SUB’EKTLARDA DEBITOR QARZLARINING AYLANISHI TAHLILIGA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR: XO’JALIK YURITUVCHI SUB’EKTLARDA DEBITOR QARZLARINING AYLANISHI TAHLILIGA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR.

8. Abdulazizovich, K. U. (2023). POSITIVE ASPECTS OF THE CASH METHOD IN SMALL ENTERPRISES UNDER UNUSUAL CIRCUMSTANCES. *ASIA PACIFIC JOURNAL OF MARKETING & MANAGEMENT REVIEW ISSN: 2319-2836 Impact Factor: 8.071*, *12*(11), 38-47.

9. Khakimov, J. B., & Kholmirzayev, A. U. (2021). Positive Aspects Of Cash Method In Small Enterprises In The Context Of Pandemic. *Turkish Online Journal of Qualitative Inquiry*, *12*(7).

10. Холмирзаев, У. А. (2023). ДЕБИТОР ҚАРЗЛАРИНИ АЙЛАНИШИ ТАҲЛИЛИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ МАСАЛАЛАРИ: ДЕБИТОР ҚАРЗЛАРИНИ АЙЛАНИШИ ТАҲЛИЛИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ МАСАЛАЛАРИ.

11. Холмирзаев, У. А., & Самижонова, Ш. С. (2022). СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ОТРАЖЕНИЯ ДЕНЕГ В БУХГАЛТЕРСКОМ БАЛАНСЕ. *Экономика и социум*, (5-2 (92)), 755-766.

12. Холмирзаев, У. А., & Камолдинов, О. О. (2022). АСПЕКТЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ПРЕДСТАВЛЕНИЯ ИНФОРМАЦИИ О ДЕБИТОРСКОЙ ЗАДОЛЖЕННОСТИ ПО

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889,
2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

ОБОРОТНЫМ СРЕДСТВАМ В БУХГАЛТЕРСКОМ БАЛАНСЕ. *Экономика и социум*, (5-2 (92)), 767-779.

13. Abdulazizovich, X. U. B. (2024). MOLIYAVIY AKTIVLAR TASNIFINI TAKOMILLASHTIRISH. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, *41*(2), 82-86.

14. Xolmirzayev, U. B., & Ergashev, I. (2024). SANOAT KORXONALARIDA INNOVATSION FAOLIYATNI BOSHQARISH TIZIMI. *Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences*, *3*(5), 109-115.

15. Abdulazizovich, X. U. B., & Abdullajanovich, U. T. (2024). SANOAT ISHLAB CHIQARISH KORXONALARIDA INNOVATSION FAOLIYAT YO ‘NALISHLARI. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, *41*(5), 17-21.

16. Abdulazizovich, X. U. B. Moliyaviy aktivlar hisobini yuritishda xalqaro standartlar qoidalarini qo’llash masalalari. *Ilmiy monografiya. Toshkent–2023*.

17. Xolmirzayev, U. B., & Xakimova, G. Z. (2024). SANOAT KORXONALARIDA INNOVATSION FAOLIYATNI AMALGA OSHIRISHNING MOLIYAVIY MEXANIZMI. *QO ‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI*, *10*, 96-98.

18. Abdulazizovich, X. U. B., & Muhabbat, N. (2024). INCREASING COMPETITIVENESS IN THE COMMODITY MARKET IN INDUSTRIAL ENTERPRISES. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, *42*(1), 197-206.

19. Gulshirin, J., & Abdulazizovich, X. U. B. (2022, March). INCREASING THE EFFICIENCY OF INVESTMENT IN THE DEVELOPMENT OF EXPORT DIVERSIFICATION IN THE REGION. In *Conference Zone* (pp. 277-281).

20. Abdulazizovich, K. U. B. (2023). Improvement Of Information About Accounts Receivable In Current Assets In The Balance Sheet Based On International Standards. *Journal of Survey in Fisheries Sciences*, *10*(2S), 2849-2859.

21. Abdulazizovich, K. U. IMPROVING THE REFLECTION OF MONEY AND CASH EQUIVALENT IN THE ACCOUNTING BALANCE. *Dear Academicians & Research Scholars*, *55*.

22. Abdulazizovich, X. U. B. (2023). XALQARO QOIDALAR ASOSIDA QIMMATLI QOG'OZLAR HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH.

23. Abdulazizovich, K. U. (2022). Improving Methodological Approaches to Financial Asset Accounting. *INTERNATIONAL JOURNAL OF RESEARCH IN COMMERCE, IT, ENGINEERING AND SOCIAL SCIENCES ISSN: 2349-7793 Impact Factor: 6.876*, *16*(4), 56-62.